O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 - yil 26 - sentabr 602-7-107-Q/22 Samarqand shahar hokimligi

Samarqand shahri hududida umumfoydanaluvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida Samarqand shahar Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 81-umumiy o‘rta ta’lim maktab oldida sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlari ijrosi doirasida, “2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi”ga muvofiq, yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish va mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari avtomobil yo‘llari infaratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining *(piyoda, jamoat transport, velotransport, avtotransport)* ustuvorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash hamda aholining murojaati va Samarqand shahar xalq ta’limi bo‘limining 2022-yil 12-sentabrdagi 01-10/78-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Samarqand shahar Iftixor ko‘chasi 6-“A” manzilda joylashgan,

Samarqand shahar xalq ta’limiga qarashli 81-umumiy o‘rta ta’lim maktab oldida, yo‘lning serqatnov qismida, O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3403-2019 talablari asosida ishlab chiqilgan sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Samarqand shahar IIO FMB YHXB (Z.Axmedov), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (Y.Bobonazarov) sun’iy yo‘l notekisliklarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin.

3. Mazkur qaror “Samarqand” gazetasida e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari R.Olimov va Samarqand shahar IIO FMB YHXB boshlig‘i Z.Axmedov zimmalariga yuklatilsin.

Shahar hokimi **F.Umarov**